



"OMMAVIY MADANIYAT" VA MILLIY QADRIYAT

Kamola Sobitjonova

Toshkent shahar o‘simliklar karantini va
himoyasi boshqarmasining matbuot kotibi rahbari

Annotatsiya

Jurnalistning professional etikasi universal hodisa emas. Albatta, media muhitida ishni tartibga soluvchi yagona hujjatlar mavjud. Bunday holda, haqiqat shundaki, har bir alohida nashr, qoida tariqasida, professional axloq qoidalariga bo‘lgan talablarini ishlab chiqadi. Shunga qaramay, biz jurnalistning professional axloq qoidalarining ayrim umumiy xususiyatlarini ko‘rib chiqishga harakat qilamiz. Kasbda sharaf va burchni idrok etish va tushunish professional birdamlik; Xususan, ma’lum bir kasb mazmunining o‘ziga xos shartlariga, o‘ziga xos xususiyatlariga asoslanadi. Xususiylar prinsiplar, asosan, barcha mutaxassislarga zaruriylar talablarni belgilaydigan axloq kodekslarida ifodalanadi. Ko‘pincha, professional axloqshunoslik ushbu sohadagi mutaxassislarning harakatlariga odamlar farovonligi bevosita bog‘liq bo‘lgan faoliyat turlarida mavjud. Bunday faoliyat turlarida kasbiylar harakatlar jarayoni va ularning natijalari, qoida tariqasida, shaxslar, butun insoniyat taqdiri va hayotiga alohida ta’sir ko‘rsatadi. Kasbiylar axloq kodeksi yoki oddiygina "odob-axloq qoidalari" - bu ma’lum bir kasbiylar faoliyat turiga mansub kishilarning qadriyatlar va axloqiy tamoyillari tizimining nashr etilgan yozma ravishda tasdiqlangan asosidir. Bunday kodekslarni ishlab chiqishning asosiy maqsadi, shubhasiz, ushbu faoliyat sohasidagi mutaxassislarni ular bajarishi kerak bo‘lgan qoidalar to‘g‘risida xabardor qilishdir, ammo ularni yozishning ikkinchi darajali vazifasi ham mavjud - ma’lum bir kasb mutaxassislarning xulq-atvor normalari to‘g‘risida keng jamoatchilikni xabardor qilish.

Kirish

Har bir jamiyatning naqadar erkin va demokratik faoliyat ko‘rsatishi shu davlatning ommaviylar axborot vositalari faoliyati bilan belgilanadi. Bugun "ommaviylar madaniyat" deb atalgan, aslida, olomon madaniyati sifatida xalqlar va millatlar ma’naviyatiga tahdid solayotgan tahlkali bir zamonda ayniqsa, bu sohaning o‘rni



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th April, 2025

va ahamiyati yanada oshib ketdi. Shu o'rinda "Ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzuvlik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay kuymaydi. Chindan ham, bugun har bir millat qadriyat va an'analari "Ommaviy madaniyat" soyasida qolib ketayotgani uchun ham bu vaziyat hatto

iqtisodiy jihatdan boy, dunyoning eng rivojlangan mamlakatlarida ham ma'naviy inqirozni yuzaga keltirmoqda. Unutmaslik kerakki, bu jaraën ommaviy axborot vositalarining ishtirokisiz kechmaydi. Chunki, axborotlar orqali kishining tasavvur olami shakllanadi. Odam eshitgani, ko'rganiga ishonishi va shu axborotlar orqali uning dunyoqarashi boyib borishi barchaga ayon. Shu sababdan ham ommaviy axborot vositalari ishtiroki ko'p narsani hal etadi. Ma'naviyat haqida har qancha da'vatlar, muhim nazariy fikrlar bildirilmasin, agar ularni jamiyat ongiga singdirish uchun doimiy ish olib bormasak, bu boradagi faoliyatimizni har tomonlama puxta o'ylangan tizimli ravishda tashkil etmasak, tabiiyki, biz ko'zlangan maqsadga erisholmaymiz, ya'ni inson qalbiga yo'l topolmaymiz. Shuning uchun ham biz bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasidan boshlab, matbuot, , internet va boshqa ommaviy axborot vositalari, teatr, kino, adabiyot, musiqa, rassomlik va haykaltaroshlik san'atigacha, bir so'z bilan aytganda, insonning qalbi va tafakkuriga bevosita ta'sir o'tkazadigan barcha sohalaridagi faoliyatimizni xalqning ma'naviy ehtiyojlari, zamon talablari asosida yanada kuchaytirishimiz, yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur. Bugun dunyoni qurolli kurashlar emas, axborot boshqarayotgani hech kimga sir emas. Sababi, bugun axborot jadalligi shu qadar tezlashib ketdiki, dunyoning narigi chetida turib, kompyuterning birgina tugmasini bosib axborotni butun olamga tarqatish imkoni bor. Ammo bu imkoniyatdan har kim turlicha foydalanmoqda. Kimdir axborotni tez va sifatli yetkazib berish uchun, yana kimlardir esa axborot tarqatish yo'li bilan g'arazli maqsadlarini amalga oshirmoqda. Ayniqsa, bu xuruj millatlarning milliy qiyofasini belgilab beradigan qadriyat va an'analarga qaratilgani o'z millati kelajagiga qayg'urgan har bir ziyolini tashvishga solishi tabiiy. "Globallashuv - bu avvalo haët sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir. Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th April, 2025

singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Hozirgi paytda uning g'oyat o'tkir va keng qamrovli ta'sirini deyarli barcha sohalarda ko'rish, his etish mumkin. Bu vaziyatda - asosiy minbarga aylanadi. orqali efir yuzini ko'rayotgan xoh kinoasar, xoh musiqa yoki teleko'rsatuv bo'lsin muayyan maqsadga yo'naltiriladi. Shu ma'noda, nafaqat jamiyat hayotining ko'zgusi, balki yosh avlod tarbiyasida muhim vosita hamdir.

"Millat va davlat taraqqiyotini ta'min etuvchi muhim omillaridan biri yosh avlodning tarbiyasi masalasidir. Xalq tarbiyasida qusur va kamchiliklar bor ekan, o'sha xalq istiqomat qiladigan makonda eng qat'iy qonunlar vositasida ham tartib o'rnatib bo'lmaydi. Dunyoning iqtisodi rivojlangan ilg'or davlatlari ham aynan yoshlar tarbiyasi masalasida oqsayotgani va shu bois ayni vaqtga qadar qo'lga kiritgan yutuqlari muvaqqat bir yuksalish ekanini e'tirof etmoqda".¹Chindan ham, bugun dunyoning hatto eng rivojlangan mamlakatlarida ham yoshlar tarbiyasi eng og'riqli nuqtaga aylandi. Bugun ular uchun ko'ngilga kelgan ishni qilish go'yoki demokratiyaning yuqori cho'qqisi. Insoniyat shu qadar tubanlashib ketdiki, hatto bir jinsli nikoh kurishdek hayvoniy hohishlarga ba'zi mamlakatlarda qonunan ruxsat etildi. Bunday holatning yuzaga kelishiga tarbiyasizlik, odob-axlok me'yorlarining buzilishi, umuminsoniy qadriyatlarning tanazzulga yuz tutishi - asosiy sabablardir. Shu sababdan bugungi kunda tarbiya masalasiga har qachongidan-da ko'proq mas'uliyat bilan qarash va har doimgidan-da ko'proq e'tibor qaratish lozim. Zero, bobolarimiz ta'kidlaganidek, " tarbiya insonni hayvondan ayirgan asosiy sifatdir". Har bir millatning ertasi albatta farzandlarining jismonan va ma'nan sog'lomligi, o'z shaxsiy fikriga ega ekani va turli g'oyaviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetining qay darajada shakllangani bilan belgilanadi. Avvalo, immunitet so'ziga e'tibor bersak, lotincha "immunitas"- "ozod bo'lish", "qutulish" degan ma'no anglatib, organizmning doimiy ichki muayyyanligini saqlashi, o'zini turli ta'sirlardan, tashqi infeksiyalar kirib kelishidan himoya qilishga qodir bo'lgan

¹ F. Madrahimova Zavolga eltuvchi madaniyat. // Tafakkur 2013-yil 4-son 88 bet

² Bahronov D. Tarbiya millatni yuksaltirar.// "Tafakkur" jurnali. 2014-yil 4-son 89-bet.



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th April, 2025

reaksiyalar tushuniladi. Ma'lumki, har ʼanday kasallikning oldini olish uchun avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimiz yuragida ona vatanga, boy tariximizga, sogʻlom munosabatni qaro ota-bobolarimizning muqaddas dinig toptirishimiz, taʼbir joiz boʻlsa, ularning mafkuraviy immunitetin kuchaytirishimiz zarur.

Ommaviy madaniyat mustaqil fenomen sifatida paydo boʻlgan davr haqida turlicha fikrlar mavjud. "Jumladan, rossiyalik sanʼatshunos Yelena Smolskaya ommaviy madaniyat yaqin oʻtmishda paydo boʻlgan, deb hisoblasa, amerikalik sotsiolog D.Uayt esa uning dastlabki unsurlari minglab tomoshabinni oʻziga jalb eta olgan Rim gladiatorlari jangida koʻrinadi, deydi ". Umuman, jahon ilm-fanida ommaviy madaniyatning paydo boʻlishiga oid mavjud fikrlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1) ommaviy madaniyatning dastlabki shart-sharoiti insoniyat tamadduni va nasroniylilik taraqqiyotining ilk davridan boshlab shakllangan. Bunga misol sifatida, ommaga moʻljallangan ilohiy keltiriladi (deylik, avom kitoblarning soddalashtirilgan koʻrinishlar uchun "Injil ").

2) ommaviy madaniyat manbalari Yevropa adabiyotida XVII- XVIII asrlarda paydo boʻlgan sarguzasht, detektiv avantyura romanlari bilan bogʻliq degan qarashlar ham bor. Misol sifatida ingliz adibi Daniel Defoning mashhur "Robinzon Kruzo" va rus yozuvchisi Matvey Kamarovning "Ingliz milordi Georgning sarguzashtlari haqida qissa" asari keltiriladi. Har ikki asar ham sodda, ravon tilda bitilgan.

3) ommaviy madaniyatning keng yoyilishiga 1870-yili Buyuk Britaniyada kuchga kirgan umummajburiy savodxonlik haqidagi qonun taʼsir oʻtkazgan, degan nuqtai nazar ham bor.

Keltirilgan maʼlumotlardan ham koʻrinib turibdiki, "ommaviy madaniyat" tushunchasi kecha paydo boʻlgani yoʻq. Ammo bugun uning taʼsiri hayotimizga tobora chuqurroq kirib kelayotganidan hech birimiz koʻz yumolmaymiz. Ayni paytda axloqiy buzuvchilik, hayosizlik, "demokratiya" bayrogʻi ostida turli buzgʻunkor gʻoyalarni urinayotgan qora kuchlar uchun ning asosiy minbarga aylanayotgani ham rost. Ommaviy madaniyat xuruji nafaqat xalqlarning milliy qiyofasiga, balki umuminsoniy qadriyatlarga ham raxna soladi. Umuminsoniy qadriyatlar-jahondagi barcha xalqlar va davlatlar uchun umumiy qadrlash mezoni hisoblangan,



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th April, 2025

umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar tizimini ifoda etadigan tushuncha. Ushbu tushuncha nihoyatda keng ko'lamli va serqirra tushunchadir. U ozodlik, erkinlik, tinchlik, baxt-saodat kabi umum ijtimoiy ma'no-mazmun kasb etadigan tushunchalardangina iborat emas. Uni faqat madaniy boyliklar sifatida tushunishni ham maqsadga muvofiq, deb bo'lmaydi. Shu bilan birga, muayyan milliy, etnik va boshqa xususiy qadriyat tizimlari ham umuminsoniy qadriyatlarning o'rini bosa olmaydi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

- 1 F. Madrahimova Zavolga eltuvchi madaniyat. // Tafakkur 2013-yil 4-son 88 bet
- 2 Bahronov D. Tarbiya millatni yuksaltirar.// "Tafakkur" jurnali. 2014-yil 4-son 89-bet.
- 3 Ma'naviyat asosiy tushunchakar lug'ati.-T.: 2008-yil, 572-bet